

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.FIL.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NIYAZOVA GULNORAXON G‘ULOMOVNA

XUSUSIY DISKURSNING KOGNITIV VA SOTSIOPRAGMATIK
ASPEKTLARI
(Ingliz va o‘zbek tillaridagi detektiv asarlar misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

Contents of the dissertation for a Doctor of Science degree (DSc)

Niyazova Gulnoraxon G‘ulomovna

Xususiy diskursning kognitiv va sotsiopragmatik aspektlari (ingliz va o‘zbek tillaridagi detektiv asarlar misolida)3

Niyazova Gulnoraxon Gulyamovna

Cognitive and sociopragmatic aspects of private discourse (on the example of English and Uzbek detective works)31

Ниязова Гулнорахон Гулямовна

Когнитивные и социопрагматические аспекты частного дискурса (на примере детективных произведений на английском и узбекском языках)57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works
Список опубликованных работ64

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.FIL.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NIYAZOVA GULNORAXON G‘ULOMOVNA

XUSUSIY DISKURSNING KOGNITIV VA SOTSIOPRAGMATIK
ASPEKTLARI
(Ingliz va o‘zbek tillaridagi detektiv asarlar misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.DSc/Fil583 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Raupova Laylo Raximovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mirzayev Ibodulla Kamolovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich
filologiya fanlari doktori, professor

Narmuratov Zayniddin Radjabovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil " 23 " iyun soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro sh., M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil " 9 " iyun kuni tarqatildi.

(2026-yil " 9 " iyun dagi 26-16 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



D.I.Xodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

O.O.Bobokalonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

O.M.Fayzulloyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari
doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida xususiy diskursning individualligini ta'minlovchi lisoniy vositalarni o'rganishga ehtiyoj bir qator sabablar bilan izohlanadi. Avvalo, til individualligi inson shaxsiyati va o'ziga xosligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Insonlar o'z fikrlari, hissiyotlari, e'tiqodlari hamda hayot tarzi va dunyoqarashini bevosita muloqot usuli orqali ifodalaydi. Shu bois xususiy diskursda individuallikni shakllantiruvchi lingvistik vositalarni tadqiq qilish inson nutqining strukturaviy va funksional xususiyatlarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv nazariy va amaliy tilshunoslik tadqiqotlarining yanada rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, xususiy diskursda individuallikni o'rganish shaxs nutqining faqat tayyor natijaviy shaklini emas, balki kommunikativ jarayon davomida yuzaga keladigan moslashuv, vaziyatga nisbatan munosabat bildirish hamda tashqi ta'sirlar fonida shakllanadigan o'zgarishlarni ham tahlil qilishni talab etadi. Zero, dinamik yondashuvlarda e'tibor subyektning yakuniy ko'rsatkichi (performance)dan ko'ra uning intervensiyalarga nisbatan reaktivligi (reactivity)ga qaratilishi diskursdagi individuallikning funksional mexanizmlarini ochib berishga xizmat qiladi¹.

Dunyo tilshunosligida xususiy diskursning individualligini ta'minlovchi lingvistik vositalarni o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: stilistika va lingvostilistika sohalarida so'zlovchi nutqi individualligini shakllantirishda metafora, metonimiya, o'xshatish, giperbola, kinoya kabi til vositalarining; sotsiolingvistika doirasida esa so'zlovchi nutqining individual xoslanishiga ijtimoiy-madaniy va psixologik omillarning ta'siri o'rganilmoqda.

Mamlakatimizda individual til xususiyatlarini tahlil qilish xususiy diskursni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar doirasida rivojlanmoqda. Bu esa muloqotni chuqurroq tushunish va tilshunoslikning turli yo'nalishlaridagi ilmiy bilimlarni boyitishga xizmat qiladi.

Kognitiv tilshunoslik til vositalarining idrok etilishi, tushunilishi va talqin qilinishi jarayonlarining individuallik jihatlarini tadqiq qilish bilan ajralib turadi. Turli lingvistik yondashuv va metodologiyalar doirasidagi ko'plab izlanishlar xususiy diskurs individualligini shakllantiruvchi lingvistik va sotsiolingvistik vositalarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning kommunikativ jarayondagi rolini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek va ingliz tillarida xususiy diskurs individualligini ta'minlovchi lingvistik va sotsiopragmatik vositalarning qiyosiy tahlili amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur jihatlar mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son

¹Estrada-Araoz, et al. (2023). Comparing the effects of computerized formative assessment vs. computerized dynamic assessment on developing EFL learners' reading motivation, reading... Language Testing in Asia, 13, 39. <https://doi.org/10.1186/s40468-023-00253-1>

“O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Hozirda diskurs doirasida axborotni shakllantiruvchi lingvopragmatik, kognitiv va sotsiopragmatik omillarni aniqlash, tilning inson tafakkuri, dunyoqarashi va hissiy olami bilan uzviy bog‘liqligini qiyosiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangani hech kimga sir emas.

Darhaqiqat, tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv rivojlanishi natijasida diskurs nazariyasi hamda nutqni kognitiv va sotsiopragmatik jihatdan o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar Buyuk Britaniya, Shvetsiya, AQSH hamda Kanada, Finlyandiya, Avstraliya, Italiya va Rossiyaning yetakchi universitetlarida keng olib borilmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda nutqiy komponentlarning axborot-diskursiv mazmuni insonning ichki kechinmalari, hissiy holati va jamiyat bilan munosabatlarini aks ettirish qobiliyati bilan bog‘liq ekani ta’kidlanmoqda. Ushbu holat Kaliforniya, Lankaster, Edinburg, Moskva va Sankt-Peterburg universitetlarida olib borilgan tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi hamda nutqning kognitiv, pragmatik va sotsiopragmatik jihatdan o‘rganilishi zamonaviy tilshunoslikda muhim ilmiy xulosalarga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Antropotsentrik tilshunoslikda diskurs muammosi, xususan, xususiy diskursning inson nutqiy muloqoti tavsifida tutgan o‘rni, tilga kognitiv jihatdan yondashuv, nutq faoliyatining pragmatik va

² Sharh universitetlarning veb-saytlaridagi ma’lumotlar hamda SCOPUS ma’lumotlar bazasidagi indekslangan ilmiy nashrlar asosida taqdim etildi: <https://www.lancaster.ac.uk/>, <https://www.oru.se/>, <https://www.nottingham.ac.uk/>, <https://www.helsinki.fi/>, <https://www.universityofcalifornia.edu/>, <https://www.cityu.edu.hk/>, <https://www.gu.se/>, <https://www.sydney.edu.au/>, <https://www.mpi.nl/>, <https://www.unin.it/>, <https://www.utoronto.ca/>, <https://msu.ru/>, <https://spbu.ru/>, <https://nuu.uz/>, <https://uzswlu.uz/>, <https://tsuull.uz/>, <https://samdhti.uz/>, <https://buxdu.uz/>, <https://www.scopus.com/>.

sotsiopragmatik tahlili hamda talqini, shaxs–nutq–til munosabatiga diskursiv yondashuv muammolari atroflicha yoritilgan³.

Tilshunoslikda diskurs muammosi, tilning antropotsentrik tabiati hamda diskursiv xususiyatlarning badiiy matnda voqelanishi borasida rus tilshunosligida I.A.Boduen de Kurtene, Y.D.Polivanov, Y.A.Sokolovskiy, B.G.Taranes, R.A.Budagov, N.D.Arutyunova⁴ kabi olimlarning tadqiqotlari ko‘pgina soha mutaxassislarining diqqat-e’tiborini tortgan.

Tadqiqotimizning obyektini hisoblanmish detektiv asarlar va ularning diskursi muammosining atroflicha o‘rganilishi ham ko‘proq T.O.Bexta, T.G.Vatolina, I.A.Dudina, Y.N.Merkulova⁵ kabi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkilotiga mansub bir nechta olim va olimalar tadqiqotlari bilan bog‘lanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham D.Abduazizova, H.Ne‘matov, R.Sayfullayeva, M.Hakimov, N.Mahmudov, S.Mo‘minov, D.Nabiyeva, A.Pardayev, M.Qurbonova, L.Raupova, Q.Rasulov, D.Rustamov, Sh.Safarov, M.Saidxonov, M.Xolmurodova, N.Xursanov, S.Nurmonova, G.Odilova⁶ va boshqa olimlarning

³ Candlin C.N. Introduction / Research and Practice in Professional Discourse / C.N. Candlin; ed. by C. Candlin. – Hong Kong: City University of Hong Kong Press, 2002. – 39 p.; Bargiela, F. Business Discourse across 'cultures': data selection, collection and analysis / F. Bargiela. – Warwick, 2010. – 120 p.; Ungerer F., Schmid H. An Introduction to Cognitive Linguistics. – Edinburgh: Longman, 1996. – 66 p.; Данилова Н.В. Средства выражения авторского мнения в научно-популярном дискурсе / Н. В. Данилова. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2018. – № 23 (209). – С. 438-441. URL: <https://moluch.ru/archive/209/51245/> (дата обращения: 26.02.2024).; Вицюк Л.А. Лексико-семантические и синтаксические средства реализации ложного дискурса: на материале русского и английского языков: Дисс. ... канд. филол. наук: – Майкоп, 2010. – 146 с. // <http://www.dslib.net/jazyko-znanie/leksiko-semanticheskie-i-sintaksicheskie-sredstva-realizacii-lozhnogo-diskursa-na.html>; Бодуэн де Куртене И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Т.1. – М.: Изд-во АН, 1963. – 349 с.; Серебренников Б.А. К проблеме сущности языка // Общее языкознание. – М.: Наука, 1970. – С. 49; Пауль Г. Принципы истории языка. – М.: Иностранной лит-ры, 1960. – 303 с.; Блумфилд Л. Язык. – М.: Прогресс, 1968. – 272 с.

⁴ Бодуэн де Куртене И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Том 1. – М.: Изд-во АН, 1963. – 384 с. (Том 2. – С. 391.); Поливанов Е.Д. Статьи по общему языкознанию. – М.: Наука, 1968. – 376 с.; Соколовский Ю.А. Избыточность и отсечение информации как средство нивелирования семантических помех // Слово в языке и речи. – Нальчик, 1982. – С. 87-94; Таранец Б.Г. Энергетическая теория речи. – Киев-Одесса: Вища школа, 1981. – 149 с.; Будагов Р.А. Определяет ли принцип экономии развитие и функционирование языка? // Будагов Р.А. Человек и его язык. – М.: МГУ, 1974. – С. 59-83; Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки славянской культуры, 1999. – 911 с.

⁵ Бехта Т.О. Лінгвокогнітивне моделювання англомовного детективного дискурсу: Дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – Львів, 2009. – С. 47; Ватолина Т. Г. Когнитивная модель детективного дискурса: на материале англоязычных детективных произведений XIX-XX вв.: Дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – Иркутск, 2011. – 209 с.; Дудина И.А. Дискурсивное пространство детективного текста (на материале англоязычной художественной литературы IX-XX вв.): Дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.19. – Краснодар, 2008. – 259 с.; Меркулова Е.Н. Прагматические особенности актуализации семиосферы «Уверенность» в англоязычном детективном дискурсе: на материале произведений А.Кристи и А.Конан Дойля: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – Барнаул, 2012. – 22 с.

⁶ Абдуазизова Д.А. Сравнительно-типологический анализ паралингвистических средств (на материале английского, русского, узбекского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1997. – С. 19; Неъматов Х., Вохидова Н., Тоирова Г. Структурал тилшуносликдан прагмалингвистикага // Хорижий филология. – Тошкент, 2007. – Б. 38-41; Сайфуллаева Р. Ўзбек тилшунослигида кўшма гапларнинг формал-функционал талқини: Филол. фанл. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1993; Сайфуллаев А.Р. Семантика и грамматика членов предложения в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 2001. – 48 с.; Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини: Филол. фанл. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 19; Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – 175 б.; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанл. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 29 б.; Nabiyeva D.A., Akhmedov B.R. Expressing of Subjective Assessment by Paralinguistic Means and Their Gender Peculiarities//European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 1. – P. 9-15; Pardayev A.B. Diskurs haqida ayrim mulohazalar // International journal of progressive science and technologies, 2021. – В. 181-189; Курбонова М. Ўзбек болалар нутқий лексикасининг социопсихолінгвистик тадқиқи: Филол. фанл. номз. ... дисс.

ishlarida tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq qimmatli materiallar uchraydi. Ammo xususiy diskurs muammosini detektiv janr xususiyatlari asosida kognitiv va sotsiopragmatik jihatdan ingliz hamda o‘zbek tillari materiali asosida qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan yirik monografik tadqiqotlar hali ham mavjud emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “O‘zbek tili sistemaviy tadqiqi”, “O‘zbek tili imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi va uni tahlil qilish hamda baholashning ilmiy asoslari”, shuningdek, “Ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy tilshunoslik taraqqiyoti” yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek xususiy diskursiga aloqador hodisalarning kognitiv hamda sotsiopragmatik tavsifini yoritish, detektiv asarlar qahramonlari tilining nutqiy xoslanishini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

antropotsentrik tilshunoslik va antropotsentrik paradigmaning o‘ziga xos xususiyatlari, xususiy diskursning shakllanishi va unga ta’sir qiluvchi omillar, detektiv asarlardagi qahramonlar nutqiy faoliyatining kognitiv va sotsiopragmatik xoslanishi bilan bog‘liq o‘rinlarni tadqiq etish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi detektiv asar personajlari nutqining diskursiv xoslanishini tanlangan asarlar qahramonlari tilida stilistik xoslangan vositalarning voqelanishi fonida tahlil qilish;

detektiv asar qahramonlari nutqi vositasida xususiy diskurs tarkibida axborotni shakllantiruvchi vositalarning pragmatik asoslarini lingvistik va lingvostilistik mezonlar asosida ochib berish;

ingliz va o‘zbek detektiv asar personajlari xususiy nutqida individuallikni ta’minlovchi vositalarni kognitiv aspektida tahlil qilish orqali ular o‘rtasidagi farqli jihatlarni aniqlash;

detektiv asar qahramonlari xususiy nutqining sotsiopragmatik xoslanishiga ta’sir qiluvchi kommunikanlar ijtimoiy mavqeyi, roli va jinsi kabi omillarni tegishli misollar orqali asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi detektiv asarlar qahramonlari tilining kognitiv va sotsiopragmatik tavsifini ifodalovchi nutqiy birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini xususiy diskursning antropotsentrik xususiyatlari, ingliz va o‘zbek tillaridagi detektiv asarlar qahramonlari nutqida ifodalangan

автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б.; Раупова Л. Диалогик дискурсадаги полипредикатив birliklarнинг сoциoпpагмaтик тaдқиқи: Филол. фанл. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 49 б.; Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2008. – 22 б.; Rustamov D. Linguacultural aspects of communication // International journal of progressive science and technologies. – M., Vol 26, No 1. 2021; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 318 б.; Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – 161 б.; Холмуродова М. Эркин Аъзам киноқиссалари тилининг сoциoпpагмaтик аспекти. – Андижон, 2021. – Б. 22; Хурсанов Н. Дpамaтик дискурсада вербал ва новербал компонентлар муносабати (ўзбек ва инглиз тилларидаги асарлар мисолида): Филол. фанл. д-ри ... дисс. – Андижон, 2022. – Б. 39; Нурмонова С. Ўзбек тилидаги қасам нутқий жанрининг лингвoмaдaний тaдқиқи. – Андижон, 2022. – 66 б.; Одилова Г. Глютоник дискурс асослари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2020. –296 б.

struktur-semantik, lingvostilistik, pragmatik, kognitiv hamda lingvokulturologik xususiyatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari sifatida chog‘ishtirish, diskursiv, kontekstual-situativ, pragmatik, lingvomadaniy, kognitiv-konseptual, statistik hamda tizimli funksional kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xususiy diskurs kognitiv va sotsiopragmatik jihatdan tizimli ravishda tahlil qilinib, detektiv asar qahramonlari tilining individualligi ularning nutqida uchraydigan obrazli va semantik jihatdan boy stilistik troplar, emotsional-ekspressiv xarakterdagi ifoda vositalari hamda janrga xos keskinlikni yuzaga keltiruvchi pragmatik ifoda vositalarning mavjudligi bilan belgilanishi isbotlandi;

ingliz detektiv asarlari qahramonlari nutqida mantiqiy va ratsional fikrlash ustuvorligi kuzatilsa, o‘zbek detektiv asarlari izquvar qahramonlari tili ko‘proq emotsional, ekspressiv va jamiyatdagi milliy-madaniy normalarga amal qilgan holda ifoda etilishi dalillandi;

stereotip, mentalitet, dunyoqarash, urf-odat kabi vositalar ta’sirida shakllanadigan detektiv asar qahramonlari individual nutqini tahlil ostiga olish ikki tilning kognitiv maydonidagi milliy-madaniy, konseptual hamda lingvokognitiv farqlarni yoritishda muhim rol o‘ynashi asoslandi;

xususiy diskursning sotsiopragmatik tabiatini detektiv asar personajlari nutqidagi ijtimoiy xoslangan leksik, fonetik va grammatik vositalar tahlili orqali yoritish mumkinligi tegishli misollar orqali dalillandi;

ingliz va o‘zbek detektiv asarlari qahramonlari nutqining individual shakllanishi ularning kommunikant sifatidagi ijtimoiy mavqeyi, roli hamda gender o‘ziga xosliklari bilan ham bevosita bog‘liq ekanligi isbotlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek detektiv asarlari qahramonlari nutqiga xos xususiy diskursning kognitiv va sotsiopragmatik xususiyatlari tasniflanib, undagi lingvostilistik vositalar guruhlarga ajratilgan va diskursiv talqin amalga oshirilgan;

detektiv asar qahramonlari xususiy nutqining kognitiv, pragmatik va sotsiopragmatik xoslanishi ushbu janrning o‘ziga xos tuzilishi, kompozitsion qurilishi hamda syujet rivojlanish dinamikasi bilan tizimli bog‘liqligi aniqlangan. Ushbu bog‘liqlik qahramonlarning nutqiy xatti-harakatlari va muloqot jarayonidagi sotsiopragmatik omillarning tahlili orqali ochib berilgan;

xususiy diskurs muammosiga kognitiv va sotsiopragmatik yondashuv ijtimoiy-madaniy tadqiqotlar, sotsiologiya, sotsiolingvistika, madaniyatshunoslik kabi fan sohalari uchun ham muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkinligi ingliz va o‘zbek xalqlari urf-odatlari hamda mentalitetini aks ettiruvchi nutqiy vositalar orqali asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalar tadqiqotchi tomonidan e’lon qilingan ilmiy ishlarda o‘z ifodasini topganligi hamda bu xulosalar ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy baholanganligi, detektiv diskursning kognitiv, pragmatik va sotsiopragmatik xususiyatlariga oid qo‘yilgan muammo tavsifiy, tasviriy-tahliliy, diskursiv, kontekstual-situativ, kommunikativ-pragmatik, kognitiv-konseptual, tizimli funksional tahlil metodlari

asosida aniqlab berilganligi, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalari tilshunoslikning kommunikativ, pragmatik, sotsiopragmatik va kognitiv yoʻnalishlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ularning til derivativ qonuniyatlari va tizimli tadqiqotiga tatbiq etilish imkoniyatini kengaytiradi. Bu natijalar til tizimining chuqurroq tahlil qilinishiga xizmat qilib, nutqning shakllanishi, maʼno hosil qilish jarayonlari va muloqotdagi funksional xususiyatlarini yanada kengroq oʻrganishga zamin yaratadi. Shuningdek, olingan natijalar tilshunoslikning diskurs tahlili, semasiologiya, kognitologiya, nutqiy tuzilmalar sintaksisi va pragmatikasiga oid qator muammolar yechimini izlash borasida nazariy ahamiyatga molikligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, avvalo, uning oliy oʻquv yurtlarida umumiy tilshunoslik, diskurs tahlili, matn lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik va sotsiopragmatika fanlari boʻyicha nazariy hamda amaliy mashgʻulotlarni tashkil etishda qoʻllanilishida namoyon boʻladi. Shuningdek, ushbu natijalar maxsus seminarlar oʻtkazish, yangi turdagi oʻquv qoʻllanmalarini yaratish hamda turli ilmiy tadqiqot ishlarida ishonchli manba sifatida foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va oʻzbek xususiy diskursiga aloqador hodisalarning kognitiv va sotsiopragmatik tavsifini yoritishdan olingan xulosa va takliflar asosida:

xususiy diskursning sotsiopragmatik tabiatini tahlil qilish jarayonida detektiv asar personajlari nutqidagi ijtimoiy xoslangan leksik, fonetik va grammatik vositalarning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini oʻrganish, detektiv janr qahramonlarining kommunikativ niyatlarini shakllantirishda stereotip, mentalitet, dunyoqarash va urf-odatlarining taʼsirini lingvistik jihatdan tadqiq etish, xususan, ingliz va oʻzbek detektiv asarlarida qahramonlarning gender va ijtimoiy mavqega bogʻliq holda shakllangan nutqiy xususiyatlari, shuningdek, lingvistik identifikatsiya va pragmatik strategiyalar orqali namoyon boʻladigan sotsiopragmatik farqlarni aniqlash bilan bogʻliq ilmiy xulosalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2019–2022-yillarga moʻljallangan A-OT-2019-10-raqamli “Oʻzbek tilida neyming: meʼyoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 20-martdagi 01/4-1038-son maʼlumotnomasi). Natijada ingliz detektiv asarlari qahramonlarining nutqida mantiqiy va analitik fikrlash ustuvorligi, oʻzbek detektiv asarlarida esa milliy-madaniy normalarga asoslangan, hissiy taʼsirchanlik bilan boyitilgan muloqot shakllari koʻzga tashlangan hamda detektiv qahramonlar nutqida sotsiopragmatik omillar va lingvistik meʼyorlarning oʻzaro bogʻliqligi, shuningdek, kommunikativ maqsadga yoʻnaltirilgan leksik birliklar va ularning pragmatik taʼsiri oshirilgan, nutqiy kompetensiyalar rivojlantirilgan, pragmatik strategiyalarni takomillashtirib, lingvistik tadqiqot metodologiyasi boyitilgan;

detektiv asarlarda xususiy diskursning sotsiopragmatik va lingvokognitiv jihatlarini tahlil qilish, personajlarning nutqiy individualligi, sotsial va gender

omillarga bog‘liq lingvistik namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish, ingliz va o‘zbek detektiv asarlarida dialoglarning tuzilishi, tergov jarayonidagi nutqiy strategiyalar va pragmatik ta’sir kuchini qiyosiy baholash, o‘zbek va ingliz detektiv asarlari qahramonlarining lingvistik identifikatsiyasi, ularning ijtimoiy roliga mos ravishda nutqiy xatti-harakatlari va kommunikativ niyatlarini tadqiq etishga doir xulosalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2020–2023-yillarda bajarilgan “Erasmus+ International Credit Mobility Programme” loyihasi doirasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 20-martdagi 01/4-1037-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek detektivlarining nutqida milliy-madaniy an’analarga asoslangan ekspressiv va ta’sirchan ifodalar keng qo‘llanilganligi qayd etilgan, detektiv asarlar dialoglarining strukturasi lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish va muloqot jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirish metodikasi ishlab chiqilgan;

xususiy diskursning kognitiv va sotsiopragmatik jihatlarini tizimli ravishda tahlil qilish, detektiv asar qahramonlari nutqining individualligi, ularning stilistik troplar, ekspressiv vositalar va janrga xos nutqiy keskinlik yaratish usullari orqali shakllanishi, ingliz va o‘zbek detektiv asarlarida qahramonlarning nutqiy repertuarlari, muloqot uslublari va lingvistik xususiyatlari qiyosiy tahliliga doir ilmiy xulosalardan 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan PF-201912258-sonli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli ilmiy grant loyihasi doirasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 20-martdagi 01/4-1036-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘p tillilik sharoitida detektiv janr qahramonlari nutqining lingvokulturologik o‘zgarishlari, mazmun va stilistik xususiyatlarning turli tillarda qanday namoyon bo‘lishi oydinlashtirilgan va adabiy tarjima tamoyillaridan, xususiy diskurs tahlili metodlari va sotsiopragmatik xususiyatlarni lingvistik jihatdan tadqiq etish yo‘nalishlarida keng foydalanilgan;

xususiy diskursning kognitiv va sotsiopragmatik jihatdan tizimli tahlilini amalga oshirish, detektiv asar qahramonlari nutqining individualligi, stilistik troplar, ekspressiv vositalar va janrga xos keskinlik yaratuvchi ifodalarning tahlili, ingliz detektiv asarlari qahramonlari nutqida mantiqiy va ratsional fikrlash ustuvorligi, o‘zbek detektiv asarlarining izquvar qahramonlari tilida emotsionallik, ekspressivlik va milliy-madaniy normalarga rioya qilishning belgilovchi omillar sifatida namoyon bo‘lishi, mentalitet, dunyoqarash, urf-odat kabi omillar ta’sirida shakllanadigan detektiv asar qahramonlarining individual nutqining ikki til kognitiv maydonidagi farqlarni ochib berishdagi o‘rnini tahlil qilish, o‘zbek va ingliz tillarining poetik lug‘atini yaratishda lingvokognitiv va sotsiopragmatik omillarni hisobga olish, adabiy matnlarni ko‘p qirrali lingvistik jihatdan tahlil qilish va diskurs tadqiqot metodologiyasini takomillashtirishga oid ilmiy xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2019–2021-yillarga mo‘ljallangan I-OT-2019-42 raqamli “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe’l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan va ushbu farqlar inson

qiyofasi, fe'l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri orqali lingvistik jihatdan qanday ifodalanganligi bilan bog'liq holda keng doirada ko'rib chiqilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 20-martdagi 01/4-1039-son ma'lumotnomasi). Natijada detektiv janrdagi personajlarning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini elektron lug'at tuzish jarayonida aks ettirish yo'nalishida ham muhim nazariy asos sifatida xizmat qilganligi e'tirof etilgan;

ingliz detektiv asarlaridagi qahramonlar nutqida mantiqiy va ratsional fikrlashning ustuvorligi, o'zbek detektiv asarlarida esa emotsionallik va ekspressivlikning yuqori ekanligi, stereotip, mentalitet, dunyoqarash va urf-odatlar ta'sirida shakllangan qahramonlarning nutqiy xususiyatlari ikki tilning kognitiv maydonidagi farqlarini ochib berishda muhim omil sifatida baholanishi, xususiy diskursning sotsiopragmatik tabiatini yoritish uchun ijtimoiy xoslangan leksik, fonetik va grammatik vositalarning detektiv personajlar nutqida namoyon bo'lish xususiyatlari tadqiq etilganligi, ingliz va o'zbek detektiv qahramonlarining nutqiy shakllanishi ularning ijtimoiy mavqei, kasbiy roli va gender xususiyatlari bilan bevosita bog'liqligiga doir ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Surxondaryo viloyati teleradiokanali DM dasturlarining "Ta'lim va taraqqiyot", "Ilm yo'li", "Munavvar kun", "Maxsus reportaj" kabi ko'rsatuv va eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston teleradiokompaniyasi Surxondaryo viloyati teleradiokanali DMning 2025-yil 20-martdagi 01-01/15-son ma'lumotnomasi). Natijada tomoshabin va tinglovchilar detektiv asar qahramonlarining nutqiy individualligi, ularning leksik, fonetik va grammatik vositalar orqali shakllanuvchi kommunikativ uslublari, detektiv janr matnlarini lingvistik jihatdan tahlil qilish metodikasi, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish va xalqaro lingvistik tadqiqotlar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishgan;

xususiy diskursning sotsiopragmatik tabiatini yoritish uchun ijtimoiy xoslangan leksik, fonetik va grammatik vositalarning detektiv personajlar nutqida namoyon bo'lish xususiyatlari, ingliz va o'zbek detektiv asarlar qahramonlari nutqining shakllanishi ularning ijtimoiy mavqei, kasbiy roli va gender xususiyatlari bilan bevosita bog'liqligi, ingliz va o'zbek detektiv asarlari qahramonlari nutqining individual shakllanishi ularning kommunikant sifatidagi ijtimoiy mavqei, roli hamda gender o'ziga xosliklari bilan uzviy bog'liqligi, detektiv asarlar matnlarida xususiy diskursning lingvokognitiv va sotsiopragmatik xususiyatlari, detektiv qahramonlarining nutqiy individualligi, ularning leksik, fonetik va grammatik vositalar orqali shakllanuvchi kommunikativ uslublari, xususiy diskursda stereotip, mentalitet, dunyoqarash va urf-odatlar ta'sirida shakllangan qahramonlarning nutqiy xususiyatlari ikki tilning kognitiv maydonidagi farqlarni ochib berishda muhim omil sifatida baholanganligiga doir ilmiy xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Nasr kengash hisobot yig'ilishlarida, ijodiy uchrashuvlarda, yosh ijodkorlar to'garagi mahorat darslarida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 01-maydagi 01-03/205-son

ma'lumotnomasi). Natijada yosh ijodkorlar va tadqiqotchilarda detektiv asarlar qahramonlarining nutqiy individualligi, ularning leksik, fonetik va grammatik vositalar orqali shakllanuvchi kommunikativ uslublari haqida mayyan tasavvurlar hosil bo'ldi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro va 4 ta respublika anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 16 ta maqola, jumladan, 10 ta respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 268 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Antropotsentrik tilshunoslikda diskurs va uning tadqiqiga oid hodisalar**" deb nomlangan. Ushbu bob antropotsentrik tilshunoslik doirasida diskursning, xususan, xususiy diskursning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratadi.

Bobning birinchi fasli ikki qismga: "*Tilni tadqiq qilishda antropotsentrik paradigma muammosi*" hamda "*Badiiy matn tahlilida antropotsentrik yondashuv*" kabi bo'limlarga ajratilgan holda antropotsentrik tilshunoslik, antropotsentrik paradigma va badiiy matn tahliliga antropotsentrik yondashuv kabi masalalarni atroflicha muhokama qilishga bag'ishlangan. Antropotsentrizm insonni olamning markazi sifatida tan oladi, inson hodisasini olamning boshqa hodisalariga qarama-qarshi qo'yadi. F.H.Aytekova tomonidan ilgari surilgan antropotsentrik paradigma tilshunoslikda yangi yo'nalishlarning shakllanishiga olib keldi.⁷ Olima B.Mo'minova til va shaxs o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tasniflab, ularni alohida o'rganib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Antropotsentrizm, antropologiya, antropogenez, antropologik paradigma va antropotsentrik paradigma kabi tushunchalarning barchasi shaxs konseptiga asoslanishini e'tirof etadi⁸.

⁷ Айтекова Ф.Х. Антропоцентрическая парадигма в современной лингвистике // Вестник КPCУ, 2014. № 9. – С. 164.

⁸ Момынова Б. Тілдегі парадигматикалық және синтагматикалық қатынастар. – Алматы, 1998. – Б. 12.

Tilning shaxsga, shaxsning tilga munosabati



1.5.-rasm. Tilning shaxsga, shaxsning tilga munosabati.

Badiiy matn barcha matnlar uchun mushtarak sanalgan umumiy xususiyatlar bilan birga o‘ziga xosliklarga ham ega. R. de Bogrand va V. Dresler matnning asosiy mezonlari sifatida izchillik, uyg‘unlik (moslik), maqsadlilik, situatsionlik, informativlik va intertekstuallikni ajratib ko‘rsatadilar⁹.

Matnning asosiy mezonlari

R. de Bogrand va V. Dresler



1.9.-rasm. Matnning asosiy mezonlari.

Bobning ikkinchi fasli “*Diskurs, xususiy diskurs va uning individualligi*”ga bag‘ishlanadi. Diskurs tilshunoslikda matn va kontekst uyg‘unligida yuzaga keladigan lingvistik hodisa sifatida talqin qilinadi. Xususiy diskurs esa muayyan shaxs yoki guruhga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda individual fikr, tajriba va hissiyotlar ifodalanadi hamda ko‘pincha subyektiv xarakterga ega bo‘ladi.

Diskurs individualligini aniqlashda leksik tahlil muhim ahamiyat kasb etib, u maxsus termin va iboralarni aniqlash, so‘z qo‘llanish chastotasini o‘rganish, leksik vositalar, matn tonalligi va uslubini tahlil qilish hamda lahja va shevaga xos birliklarni aniqlash kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Diskurs individualligini ifodalovchi vositalar majmui mavjud bo‘lib, ular muloqot ishtirokchilarining shaxsiy xususiyatlarini aks ettiradi. Jumladan, fonetika va talaffuz, so‘z tanlovi,

⁹ Mammadov A. *Studies in Text and Discourse*. – Cambridge: Cambridge Scholars Publishing, 2018. – 145 p.

sintaksis, uslub hamda metatildan foydalanish nutq individualligini ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Birinchi bobning so'nggi fasli ikki qismdan iborat bo'lib, unda detektiv asarlarni o'rganish yo'nalishlari va ularning kompozitsion tuzilishi tahlil qilinadi hamda janrga xos umumiy qurilish xususiyatlari yoritiladi.

Detektiv asarlarda o'zaro bog'liq bir nechta voqealar tizimi aks etib, ular detektiv, jinoyatchi, jabrlanuvchi yoki tergovga bevosita aloqador bo'lmagan shaxslar bilan bog'liq epizodlarni qamrab oladi. Markaziy o'rinda jinoyatni tergov qilish jarayoni turib, unda ko'plab qahramonlar gumonlanuvchi sifatida jalb etiladi.

Detektiv Asarning Tuzilish Bosqichlari



1.16.-rasm. Detektiv asarning tuzilish bosqichlari.

Xulosa qilib aytganda, birinchi bob antropotsentrik tilshunoslik doirasida detektiv asarlarda xususiy diskurs individualligini ta'minlovchi lingvistik vositalarni aniqlashga bag'ishlangan. Matnlarning kompozitsion va stilistik tahlili orqali xususiy diskursning shakllanish omillari yoritilib, kognitiv va sotsiopragmatik yondashuvlarning ahamiyati asoslanadi. Shu bilan birga, ingliz va o'zbek nutqiy xususiyatlarini qiyosiy o'rganish uchun nazariy asos yaratiladi hamda ish diskurs tahlili, kognitologiya va pragmatika yo'nalishlarida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi "**Detektiv asar qahramonlari diskursida lingvostilistik vositalarning voqelanish xususiyatlari**" deb nomlanadi. Mazkur bobning "*Detektiv matnlarda xususiy diskursning stilistik troplar orqali ifodalanishi*" nomli birinchi faslida detektiv asarlarda xususiy nutqning stilistik troplar orqali qanday ifoda etilishi mumkinligi xususida fikr yuritiladi. Stilistik troplar so'zning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosi asosida yangi ma'no hosil qilib, nutqda obrazlilikni kuchaytiradi; bunga metafora va metonimiya misol bo'la oladi. Metaforalarning to'g'ri dekodlanishi so'zlovchi niyatini aniq ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu holatni O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" hamda *The Hound of the Baskervilles* romani misolida kuzatish mumkin.

<p>“Sudlanmagan. Uch marta ministrlkning faxriy yorlig‘i bilan mukofotlangan. Chet elga chiqayotganda berilgan xarakteristika ham juda yaxshi. Shaxsiy delosida turibdi. Xullas, toza odam.”</p>	<p>“It may be that you are not yourself luminous, but you are a conductor of light,” said Dr. Watson.”</p>
<p>– Nega? – Qo‘qonga borib kelaman. Balki, ayasi bergandir? Nima deysan! Ishonmayman-u, lekin qari tulkining eridan ko‘p narsani yashirishini bilaman. Balki, unikiidir?</p>	<p>“A dabbler in science, Mr. Holmes, a picker up of shells on the shores of the great unknown ocean.”</p>

“Toza odam”, “qari tulki” kabi metaforik birliklar o‘zbek detektiv asarlarda qahramonlarning xarakteri va ichki dunyosini ifodalashga xizmat qiladi. Xususan, “qari tulki” iborasi Rahim Saidov nutqida qaynonasining ayyorligini obrazli tarzda ko‘rsatsa, “toza odam” birikmasi katta leytenant Ro‘ziyev nutqida Olloyorovning jinoyatga aloqador emasligini anglatadi. Doktor Votson nutqidagi “conductor of light” iborasi Sherlok Holmsga nisbatan qo‘llanib, uning aql-zakovati va tafakkur kuchini ramziy tarzda ifodalaydi. Shuningdek, “chig‘anoq terish” haqidagi metafora Holmsning kichik detallarni yig‘ib, ularni tahlil qilish orqali murakkab jinoyatni ochish jarayonini anglatadi; bu yerda chig‘anoqlar bilim va dalillar ramzi sifatida talqin qilinadi.

Metonimiya esa detektiv qahramonlar nutqida metaforadan keyin eng faol qo‘llaniladigan ritorik vositalardan biridir. Quyida “Yoz yomg‘iri” va Murder on the Orient Express asarlarida uchraydigan metonimik birliklar tahlil qilinadi:

1. *Bir yog‘i Shohimardon, bir yog‘i Arslonbob. Bo‘lmadi. Samarqandga borib, Urgutda dam olib kelamiz, dedi. Bo‘lmadi. Yaltani ham va‘da qildi.*

2. *A name of good omen,” said Poirot. “I read my Dickens. M. Harris he will not arrive.*

Birinchi misolda “Yaltani va‘da qildi” iborasi metonimiya sifatida qo‘llanib, geografik nom orqali u yerda dam olish mazmunini anglatadi. Ikkinchi misolda esa Puaro nutqidagi “I read my Dickens” ifodasi yozuvchi Charles Dickens asarlarini o‘qishni bildiruvchi metonimik birlik sifatida talqin qilinadi. Mazkur ifoda orqali Puaro vaziyatni tahlil qilishda Dikkensga xos kuzatuvchanlik va tahlil yondashuvga tayanayotganini anglatadi.

Bobning ikkinchi fasli “Ekspressivlikni yaratuvchi individual ifoda vositalarining detektiv asar qahramonlari nutqida voqelanishi”ga bag‘ishlanib, unda nutq ekspressivligini ta‘minlovchi stilistik vositalar tahlil qilinadi. Ushbu vositalar nafaqat dramatik ta‘sirni kuchaytiradi, balki o‘quvchi idrokini boshqarishga ham xizmat qiladi. Ularning kognitiv funksiyalari e‘tibor va xotirani faollashtirish (*kursiv, takror, metafora*), axborotni mustahkamlash (*fragmentatsiya, ellipsis*) hamda nutqiy strategiyalarni ifodalash (emfatik urg‘u, masofaviy takror) orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois stilistik vositalar nutq tabiiyligini ta‘minlash bilan birga, o‘quvchi idrokini yo‘naltiradi va kognitiv yondashuv asosida ularning funksional ahamiyatini chuqurroq anglash mumkin. Ekspressivlik esa asosan emotsionallik va ma‘no kuchaytiruvchi vositalar orqali yuzaga keladi. Mazkur holat quyidagi misolda yaqqol ko‘rinadi:

1. “A man cannot behead with a bodkin,” said Brown **calmly**, “and for this murder beheading was **absolutely necessary**”¹⁰

2.– Nima uchun chaqirganimizni bilasizmi?

– **Mutlaqo xabarsizman**, o‘rtoq kapitan... Olloyorov o‘rnidan turmoqchi edi, kapitan qo‘lini ko‘tardi¹¹.

Nutqning hissiylikini ta‘minlab beruvchi uslubiy vositalardan yana biri ma‘noviy takrorlardir.

1. “The garden was **large and elaborate**”¹².

2.“...she is **steady and careful**”¹³.

Ingliz tilida sinonim so‘zlarning takrorlanishi (“intensification”, “emphasis”) fikrni kuchaytirish va ta‘kidlashga xizmat qiladi. Masalan, “large–elaborate”, “steady–careful” kabi birliklarning birgalikda qo‘llanishi nutq ekspressivligini oshiradi. Bu usul ingliz tilida keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbek tilida bunday takror ko‘pincha ortiqcha yoki uslubiy xato sifatida baholanadi.

Giperbola esa ma‘noni bo‘rttirish orqali ta‘sirchanlikni kuchaytiruvchi vosita bo‘lib, detektiv asarlarda ham faol qo‘llanadi. Agatha Christie qahramonlari nutqida ham bu usul orqali voqea-hodisalar keskinlashtirilib, o‘quvchi e‘tibori jalb etiladi:

1. “Well, rather fruity, if you know what I mean. I mean **you’d smell it a hundred yards away**. But mind you,” the Colonel went on hastily, “this may have been earlier in the evening.”

2.“I suppose I saw photos of him in the papers, but I **wouldn’t recognise my own mother** when a newspaper photographer got through with her”.

Keltirilgan misollarda polkovnik Arbuznotning “hidni yuz yarddan sezish” va janob Hardmen nutqidagi “I wouldn’t recognise my own mother” kabi mubolag‘ali ifodalar nutqqa ekspressivlik va kulgilik bag‘ishlaydi. Shuningdek, o‘zbek detektiv asarlarida ham mubolag‘a keng qo‘llanilib, bu holat “Yoz yomg‘iri” asari qahramonlari nutqida yaqqol kuzatiladi:

1. “**O‘rtoqlarimning hammasi tillaga ko‘milib yotishibdi**. Bitta men sho‘rlik kechalari bilan tiyinni hisoblab chiqaman”.

2. – Voy, muncha qizimni yerga urasiz? – zarda bilan javob qilardi xotini. – Pul deb, nima, erining hiqildog‘idan bo‘g‘yaptimi? Yosh narsa, kiyingisi, o‘ynagisi keladi-da. O‘sha siz aytgan narsalar qizimda ham **oshib-toshib yotibdi**. **Qopga solsa og‘zini yopolmaysiz!**

Birinchi misolda Munisxonning “o‘rtoqlarimning hammasi tillaga ko‘milib yotishibdi” va “kechalari bilan tiyinni hisoblayman” kabi jumalari uning hayotidan noroziligini obrazli tarzda ifodalaydi. Ikkinchi misolda esa ona qizining ijobiy sifatlarini mubolag‘a orqali tasvirlab, unga bo‘lgan chuqur muhabbatini ta‘sirchan ifodalaydi.

¹⁰ Chesterton G.K. The secret garden. The Complete Father Brown Stories. – London: Penguin Books, 1910. – P. 27.

¹¹ Umarbekov O‘. Yoz yomg‘iri. – B. 62. www.ziyouz.com kutubxonasi

¹² Chesterton G.K. Ko‘rsatilgan manba. – B. 17.

¹³ Allingham M. Family Affair. Stories of Detection and Mystery. – London: Longman, 1994. – P. 80.

Bobning so‘nggi fasli detektiv matnda keskinlikni ifodalovchi lingvostilistik vositalar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda leksik takrorlar muhim o‘rin tutadi. Takrorlash qahramon fikrini aniq va ta’sirchan yetkazishga xizmat qiladi. Quyida “Yoz yomg‘iri” asarida kapitan Aliyev va Rahim Saidov nutqidagi takrorlarning funksional xususiyatlari tahlil qilinadi:

1. *“Eshiting, eshiting axir! Muhim ish chiqib qoldi. Otpuskani bekor qilishdi. Eshityapsizmi? Ha, shunday bo‘lib qoldi. Bir oy. Bo‘ldi, bo‘ldi, o‘zingizni bosing. Bir oy nihoyati. Putyovkalarini o‘zim almashtiraman. Ha, ha, atigi bir oy”.*

2. *“Munis yo‘q, – dedi zo‘rg‘a bo‘g‘ilib Rahim Saidov. – Uni kecha o‘ldirib ketishibdi.*

– Nima?! Esing joyidami o‘zi? Nima deyapsan?

– Rost, **Munis endi yo‘q”.**

Parchada berilgan “eshiting”, “bir oy”, “bo‘ldi”, “ha” (kapitan Aliyev nutqida) va “Munis yo‘q” (Rahimjon nutqida) kabi iboralarning kontekstda bir martadan ortiq ishlatilayotgani so‘zlovchilar nutqini urg‘u bilan ta’kidlanib ifodalanishiga imkon yaratadi.

Detektiv asarlarda keskinlikni oshirish muallifning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, voqealarning doimiy taranglikda ifodalanishi janrning asosiy belgilaridan sanaladi. Og‘zaki va yozma nutq tabiatan farqlanadi; og‘zaki nutqqa xos intonatsiya, urg‘u va ovoz tembri yozma matnda maxsus grafik vositalar orqali ifodalanadi. Shunday vositalardan biri nutqning ayrim qismlarini noodatiy shaklda berishdir:

1. *“My life has been threatened, Mr. Poirot. Now I’m a man who can take pretty good care of himself.” From the pocket of his coat his hand brought a small automatic into sight for a moment. He continued grimly. “I don’t think I’m the kind of man to be caught napping. But, as I look at it, I might as well make assurance doubly sure. I fancy you’re the man for my money, Mr. Poirot. And remember – **big money**”¹⁴.*

2. *“Poor creature, she’s a Swede. As far as I can make out she’s a kind of missionary. A teaching one. A nice creature, but doesn’t talk much English. She was **most** interested in what I told her about my daughter”¹⁵.*

Berilgan misollardagi kabi gapdagi jumladan birining (“big”, “most”) grafik jihatdan “italic” harflarda (yotiq harflar) taqdim qilinishi, qahramonlar (birinchi misolda Retchet, ikkinchi misolda detektiv Puaro) nutqidagi aynan shu jumlar muhim axborot tashiyotganiga ishora qiladi. Ba’zan esa bunday jumlar qahramonlar nutqida bir nechta bo‘lib (guruh bo‘lib) kelishi mumkin.

Xullas, ushbu bob detektiv asar qahramonlari nutqidagi lingvostilistik vositalarni tahlil qilish orqali ularning xususiy diskursning individualligini shakllantirishdagi rolini yoritib beradi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Detektiv asar hamda uning qahramonlari nutqining pragmatik va kognitiv xoslanishi”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, uning birinchi fasli *“O‘zbek va ingliz detektiv asarlarida qahramonlar nutqining*

¹⁴ Agatha Ch. Ko‘rsatilgan manba. – B. 20.

¹⁵ Agatha Ch. Ko‘rsatilgan manba. – B. 22.

chog'ishtirma pragmatik tahlili" deb nomlanadi. Badiiy asarlarda, xususan, detektiv asarlar matnida axborot o'quvchiga har doim ham to'liq va to'g'ridan to'g'ri yetkazilmaydi. Muallif bu kabi vaziyatlarda berilgan qisqa xabar orqali juda ham muhim ma'lumot tashishni maqsad qilgan bo'ladi:

– *Iziga qanday tushdinglar?*

– *Ikkita giyohvand yigitni tutuvdik. Qayerdan oldilaring, desak, shu yerni aytishdi.*

– *Osongina aytishdimi yo qiynadinglarmi?*

*Hamdam "meni bilasan-ku", deganday kulimsirab qo'ydi. Zohid bo'sh stulni olib, ayolning ro'parasiga o'tirdi-da, o'zini tanishtirdi*¹⁶.

Ichki ishlar xodimlari o'rtasidagi ushbu suhbat so'zlovchining kasbiy mahorati va ish uslubi haqida muayyan tasavvur beradi. Kontekstdan Hamdamning tajribasi suhbatdoshi uchun yaxshi ma'lum ekani anglashiladi; shu bois uning Zohid savoliga bevosita javob bermay, kulimsirashi yetarli kommunikativ signal vazifasini bajaradi. Mazkur holat esa so'roq jarayonida bosim qo'llanilgan yoki u qonuniy tarzda olib borilgan degan ikki xil talqinga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, Shaytanat asarida Hamdamning ish uslubidan xabardor bo'lgan Zohid ushbu ishorani to'g'ri angelaydi, biroq o'quvchi uchun bu vaziyat turlicha talqin qilinishi ehtimoli saqlanib qoladi.

"Is there anything further you want to ask me, gentlemen?"

"Only one thing, Madame, a somewhat personal question. The colour of your dressing-gown."

She raised her eyebrows slightly. "I must suppose you have a reason for such a question. My dressing-gown is of black satin."

Murder on the Orient Express asaridagi malika Dragomirov nutqida libos rangini oddiy "It's black" tarzida emas, balki uning materialini ham ta'kidlash orqali ifodalashi yuqori tabaqaga xos estetik did va nazokatni aks ettiradi. Shuningdek, "Yoz yomg'iri" asarida Rahim Saidov onasiga tegishli nutqni pragmatik jihatdan tahlil qilish mazkur masalani yanada chuqurroq yoritishga imkon beradi:

– *Qizingning yonidan yana ming so'mga yaqin mol chiqibdi.*

– *Nima ekan?*

– *Zirak, uzuk...*

– *Qudam bergan zirakni bilaman. U bunaqa qimmat emas. Nikohda taqqan uzugi juda arzon, ellik so'mmi, oltmish so'mmi?*

Yuqoridagi misolda Rahim Saidovning onasi, aslini olganda, o'z nutqida qudasi tomonidan sarpoga qo'yilgan zirakning arzonligini qistirib o'tishni, bu orqali qudasi tomoniga ta'na toshlarini otishni implitsit ko'rinishda maqsad qilganini sezish qiyin emas.

Mazkur bobning ikkinchi fasli "*O'zbek va ingliz detektiv qahramonlar portretining lisoniy manzarasi*" deya nomlanib, unda o'zbek va ingliz detektiv qahramonlar tasviri hamda ularning xususiy nutqi o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar ochib berish maqsad qilindi.

¹⁶ Tohir Malik. Shaytanat. Birinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 1994. – 384 b.

O‘zbek detektiv asarlarida qahramonlar odatda ideallashtirilmaydi va jinoyatni fosh etish uchun favqulodda intellektual salohiyat egasi sifatida tasvirlanmaydi. Shu sababli ularni ingliz detektivlari — Puarro yoki Sherlok Holms kabi obrazlar bilan qiyoslash qiyin. Bu holat detektiv kasbining o‘zbek jamiyatida shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Biroq bu jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi qatlam yo‘qligini anglatmaydi: ingliz adabiyotida detektiv zimmasiga yuklangan vazifa o‘zbek kontekstida militsiya tomonidan bajariladi. Har ikki holatda ham jinoyat jazosiz qolmaydi:

– *Bo‘ldi, do‘stim, o‘zingni bos. Militsiya topadi. Qotil tegishli jazosini oladi.*

O‘lmas Umarbekovning “Yoz yomg‘iri” asaridan keltirilgan ushbu misolda Rahim Saidov do‘sti nutqi orqali o‘zbek jamiyatida militsiya va uning jinoyatni ochish salohiyatiga yuqori ishonch mavjudligi aks etadi. Jumladan, qotilning baribir jazoga tortilishi haqidagi qat‘iy ishonch so‘zlovchi nutqida aniq ifodalangan.

Inglizlar ko‘pincha hukumatning politsiya tizimiga va uning jinoyatlarni fosh etish imkoniyatlariga to‘liq ishonch bildirmaydi. Shu sababli ular maxsus ko‘nikmalarga ega detektivlarni yollashadi va ularning xizmatiga yuqori haq to‘lashadi. Bu holat jamiyatda detektiv kasbiga nisbatan yuqori e‘tibor va hurmatni ko‘rsatadi hamda detektivni doimiy rivojlanishga undaydi. Biroq ingliz detektiv adabiyotida qahramonlar ko‘pincha moddiy manfaat uchun emas, balki murakkab jumboqlarni yechish va haqiqatni aniqlash istagi bilan harakat qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu jihat Agatha Christie yaratgan mashhur qahramon Puarro nutqida ham yaqqol namoyon bo‘ladi:

“I regret, Monsieur,” he said at length, “that I cannot oblige you.”

The other looked at him shrewdly. “Name your figure, then,” he said.

Poirot shook his head.

“You do not understand, Monsieur. I have been very fortunate in my profession. I have made enough money to satisfy both my needs and my caprices. I take now only such cases as—interest me”¹⁷.

Inglizlar ko‘pincha hukumatning politsiya tizimiga va uning jinoyatlarni fosh etish imkoniyatlariga to‘liq ishonch bildirmaydi. Shu sababli ular maxsus ko‘nikmalarga ega detektivlarni yollashadi va ularning xizmatiga yuqori haq to‘lashadi. Bu holat jamiyatda detektiv kasbiga nisbatan yuqori e‘tibor va hurmatni ko‘rsatadi hamda detektivni doimiy rivojlanishga undaydi. Biroq ingliz detektiv adabiyotida qahramonlar ko‘pincha moddiy manfaat uchun emas, balki murakkab jumboqlarni yechish va haqiqatni aniqlash istagi bilan harakat qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu jihat Agatha Christie yaratgan mashhur qahramon Puarro nutqida ham yaqqol namoyon bo‘ladi:

“U Saidovning qotillikka aloqador bo‘lishini istamasdi. Yaxshi odam. Uni birinchi ko‘rgandayoq shu fikr xayolidan o‘tgan edi. Ish tugaguncha shu fikrda qolgisi kelardi”.

– *Xo‘sh, nima deysizlar?— Aliyev yordamchilariga tikildi.*

– *Erini so‘roq qilish kerak, — dedi leytenant Sultonov.*

¹⁷ Agatha Ch. Ko‘rsatilgan manba. – B. 20.

– ***Boshida shuncha tashvish turganda-ya?***

Asarda Kapitan Aliyev Rahim Saidovni (marhumaning eri) qotil sifatida ko‘rishni istamay, butun voqea davomida unga xayrixoh munosabat bildiradi. Shu bois, hatto xizmat vazifasi doirasida uni so‘roq qilish zarurati tug‘ilganda ham, bu qarorni ichki jihatdan qo‘llab-quvvatlamaydi. Mazkur holat ingliz detektiv obrazlariga, xususan, Hercule Poirot faoliyatiga xos emas, chunki u tergovni odatda eng yaqin shaxslarni so‘roq qilishdan boshlaydi.

Mazkur bobning so‘nggi fasli “*O‘zbek va ingliz detektiv asarlari matni va undagi obrazlar nutqining kognitiv xoslanishi*” deb nomlanadi.

Olamning lisoniy obrazi nutqiy birliklarning leksik xoslanishini belgilab, insonning borliqni til orqali aks ettirishiga xizmat qiladi. Bu tushuncha milliy dunyoqarashni ifodalovchi so‘z va iboralar orqali o‘quvchida muayyan tasavvur, hissiy kechinma va voqelik obrazini shakllantiradi. Mazkur holatni O‘lmas Umarbekovning “Yoz yomg‘iri” asaridan olingan parcha misolida kuzatish mumkin: “*Keyin endi o‘taman degan edi, yuk mashinasi chinqirib oldida to‘xtadi, shofyor derazadan boshini chiqarib, so‘kindi:*

– *Ko‘zmi, peshanami, kallavaram! Ko‘k chiroq-ku?! Rahim Saidov orqasiga qaytdi. Svetoforda qizil chiroq yongach, chorrahani kesib o‘tdi. Hozir uni mashina urib ketishi hech gap emas edi.*

Keltirilgan misolda rang tushunchasining o‘zbek lisoniy obrazida o‘ziga xos ifodalanishi kuzatiladi: svetofordagi “yashil” rang “*ko‘k chiroq*” shaklida ifodalanadi. Bu holat til va borliqni kognitiv idrok etish o‘rtasidagi bog‘liqlikni namoyon etadi. Mazkur birlik o‘zbek tilida tabiiy qabul qilinsa-da, boshqa til va madaniyat vakillari uchun semantik chalkashlik tug‘dirishi mumkin.

Shuningdek, kapitalistik jamiyatda axloqiy qadriyatlar va adolatga munosabat o‘zgarib, shaxsiy manfaat va moddiy omillar ustuvorlik kasb etadi. Bu esa borliqni idrok etishda amaliy va materialistik yondashuvning kuchayishiga hamda ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holat Murder on the Orient Express asaridagi janob Retchet nutqida ham aks etadi:

“Why, naturally, I understand that. But this, Mr. Poirot, means big money.” He repeated again in his soft, persuasive voice, “Big money.”

Kapitalistik jamiyatda pul universal yechim sifatida talqin qilinib, hatto murakkab muammolarni ham “*katta pul*” orqali hal etish mumkinligi g‘oyasi keng tarqalgan. Bu qarash janob Retchet nutqida yaqqol namoyon bo‘lib, unda pulning ingliz jamiyatidagi yuqori maqomi aks etadi. Xususan, Retchetning Puarro fikrini “*katta pul*” vositasida o‘zgartirishga urinishi ushbu materialistik yondashuvni ifodalaydi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, barcha qadriyatlar pul bilan o‘lchanmaydigan jamiyat vakillari borliqni boshqacha idrok etadi. Mazkur tafovutni chuqurroq anglash uchun O‘lmas Umarbekovning “Yoz yomg‘iri” asaridagi Munisxon otasi nutqi misolida qiyosiy tahlil qilish mumkin: “*Pul – kerak narsa, pulsiz hayot bo‘lmaydi. Lekin undan qimmatli narsalar ham bor: obro‘, vijdon, aql, madaniyat*”.

Keltirilgan jumalarda nutq egasining “pul” tushunchasini obro‘, vijdon, aql va madaniyat kabi qadriyatlardan past qo‘yishi kuzatiladi. Bu esa o‘zbek

jamiyatida moddiy farovonlikdan ko‘ra ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ustuvor ekanini ko‘rsatadi.

Stereotiplar “*milliy xarakter*” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u millatga xos sifatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Detektiv asarlar qahramonlari nutqida ham bunday stereotiplar orqali ijtimoiy va madaniy qarashlar ifodalanadi. Buni Murder on the Orient Express asaridagi ingliz qahramoni Meri Debenhem nutqi misolida kuzatish mumkin: “*A crime—it is all in the day’s work to you, eh?*”

“It is naturally an unpleasant thing to have happen,” said Mary Debenham quietly.

“You are very Anglo-Saxon, Mademoiselle. Vous n’éprouvez pas d’émotion”.

She smiled a little. “I am afraid I cannot have hysterics to prove my sensibility. After all, people die every day”.

“They die, yes. But murder is a little rarer”.

Turli madaniy kontekstlarda inglizlarning sovuqqonligi haqidagi stereotipik qarashlar keng tarqalgan. Keltirilgan misolda detektiv orqali yetkazilgan o‘lim xabari ingliz qahramoni tomonidan ortiqcha emotsiyalarsiz qabul qilinadi. Xususan, Meri Debenhemning “*Baribir, insonlar har kuni o‘lishadi*” mazmunidagi izohi uning psixologik tarang vaziyatda ham o‘zini tuta bilishini, ya’ni inglizlarga xos deb qaraladigan emotsional vazminlikni aks ettiradi. Asarning boshqa epizodlarida ham shu kabi sotsiostereotiplar kuzatiladi.

1. *“True to their nationality, the two English people were not chatty. They exchanged a few brief remarks and presently the girl rose and went back to her compartment”.*

2. *I suppose the English valet is not lying when he said the other never left the compartment? But why should he! It is not easy to bribe the English; they are so unapproachable”.*

Keltirilgan misollarda inglizlarga oid ikki geterostereotip (ularning kamgapligi va pora bilan og‘dirish qiyinligi) aks etgan bo‘lsa, quyidagi o‘zbek detektiv asari misolida gender stereotiplarning keng qo‘llanilishi ham kuzatiladi:

G‘ulomov qoshlarini chimirdi.

– Ayol kishining shuncha konyak ichishiga biror sabab bo‘lishi kerak”¹⁸.

O‘zbek ayollari odatda alkogol iste’molidan yiroq shaxslar sifatida stereotiplashtiriladi, bu esa ayol obrazining milliy lisoniy manzarasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois detektiv tomonidan ayolning konyak iste’mol qilish sababining izlanishi muhim deb qaraladi. Ingliz jamiyatida esa bunday holat odatiy bo‘lib, alohida izoh talab qilmaydi.

Inson yashayotgan ijtimoiy muhit uning borliqni idrok etishiga bevosita ta’sir qiladi va bu jarayonda til asosiy vosita vazifasini bajaradi. Xususan, jinoyat va jazo tushunchalari jamiyatning normativ qarashlari hamda axloqiy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Bu jihat Murder on the Orient Express asaridagi misollar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi:

¹⁸ Umarbekov O‘. Ko‘rsatilgan manba. – B. 16. www.ziyouz.com kutubxonasi

1. *“Arbuthnot’s face grew rather grim. “Then in my opinion the swine deserved what he got. Though I would have preferred to see him properly hanged—or electrocuted, I suppose, over there”.*

2. *“Still, they will not **guillotine** her. There are extenuating circumstances. A few years’ imprisonment—that will be all.”*

Dastlabki misolda Yevropa mamlakatlariga xos ayrim jazo usullari (masalan, elektroshok orqali qatl etish) aks etgan bo‘lsa, bunday holatlar o‘zbek adabiyotida uchramaydi, chunki ular milliy qonunchilikda mavjud emas. Xuddi shuningdek, Agatha Christie mansub madaniy-huquqiy muhitda gilotina orqali qatl etish normal holat sifatida aks etadi va bu *“to guillotine”* kabi lingvistik birliklarda ifodalanadi. O‘zbek tilida esa bunday tushunchalar mavjud emasligi sababli, yozuvchilar voqelikni o‘z ijtimoiy-madaniy muhitiga mos tarzda tasvirlaydi. Jamiyatdagi urf-odatlar ijtimoiy ongning muhim ko‘rsatkichidir. O‘zbek jamiyatida to‘y va hatto aza marosimlarida ortiqcha sarf-xarajat qilish tendensiyasi kuzatiladi. Quyidagi dialogda ushbu holatning oqibatlari hayotiy vaziyat asosida yoritiladi:

– *Bu qimmat turadi-ku? Shuncha pulni qayoqdan olibdi?*

– *Sen bermaganmiding? – so‘radi Ubaydulla aka.*

– *Voy, menda pul bormidi? **O‘limligimga** atab qo‘yganim bor. U urvoq ham bo‘lmaydi. Nima gap o‘zi? Tinchlikmi?*¹⁹

Olamning lingvistik qiyofasi kognitiv tilshunoslikda keng o‘rganilayotgan muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu nuqtai nazardan, “o‘limlik” iborasini tahlil qilish dolzarbdir. Ushbu tushuncha inson vafotidan keyingi marosimlar uchun oldindan ajratilgan mablag‘ni anglatadi va uning ingliz tiliga to‘liq adekvat tarjimasini topish murakkab. *“Funeral savings”* yoki *“death fund”* kabi birliklar ma’no jihatdan yaqin bo‘lsa-da, ular o‘zbek madaniyatiga xos ijtimoiy-ma’naviy mazmuni to‘liq ifodalay olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, olamning lisoniy qiyofasi xalqning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy hayotining til orqali ifodalanishidir. Til birliklarining mavjudligi yoki yo‘qligi esa muayyan jamiyatning hayot tarzi, falsafiy va axloqiy mezonlarini yoritib beradi.

Dissertatsiyaning **“Detektiv asar qahramonlari xususiy diskursining sotsiopragmatik tabiati”** deb nomlanuvchi so‘nggi bobining dastlabki faslida *“O‘zbek va ingliz detektiv asar qahramonlari nutqida ijtimoiy xoslangan leksik, fonetik va grammatik vositalarning sotsiopragmatik tadqiqi”*ga oid masalalarga oydinlik kiritiladi. Detektiv asarlarda jargonlar personajlarning ijtimoiy mavqei, kasbi va guruhga mansubligini ifodalab, ularni jinoyat olami muhitiga yaqinlashtiradi. Qahramonlar nutqidagi farqlar esa ularning ijtimoiy va kasbiy tafovutlarini aks ettirib, so‘zlovchining qaysi guruhga mansubligini aniqlashga xizmat qiladi:

Oh! it’s all right.” He shot a slightly annoyed glance in Poirot’s direction. Then he went on:

*“But I don’t like the idea of your being a governess—at the beck and call of tyrannical mothers and their tiresome **brats**”²⁰.*

¹⁹ Umarbekov O‘. Ko‘rsatilgan manba. – B. 57. www.ziyouz.com kutubxonasi

Keltirilgan parchada “brat” so‘zi jargon sifatida qo‘llanib, so‘zlovchining harbiy soha vakili ekanini bildiradi. Ushbu nutq muallifining polkovnik Arbuznot ekanligi mazkur birlikning tanlanishi bilan uzviy bog‘liq. Shuningdek, o‘zbek detektiv asarlarida, xususan, “Yoz yomg‘iri” asari qahramonlari nutqida ham jargonlardan keng foydalanilishi kuzatiladi: “*Sulaymon akani hayron qoldiramiz to‘g‘ri idoraga borib, – dedi g‘urur bilan shofyor.*

– *Ja sekin yuradilar u kishi, xit qilib yuboradilar.*”

Keltirilgan parchadagi “*xit qilib yubormoq*” iborasi rasmiy til me‘yorlariga mos kelmaydigan, odatda norasmiy muloqotda qo‘llaniladigan birlikdir. Uning aynan haydovchi nutqida qo‘llanishi so‘zlovchining ijtimoiy maqomi bilan bog‘liq bo‘lib, norasmiy rol egalariga xos nutqiy xususiyatni aks ettiradi.

Shuningdek, badiiy asarlarda qahramon nutqi fonetik jihatdan xoslanib, qo‘shimcha axborot uzatish vazifasini bajaradi. Bu jihatni har bir o‘quvchi ham ilg‘ay olmaydi; uni asosan sinchkov o‘quvchi anglaydi. Mohir yozuvchi esa fonetik xususiyatlarni maxsus usullar orqali yozma nutqda ham ifodalay oladi.

1. “*To-day is Sunday,*” said Lieutenant Dubosc. “*Tomorrow, Monday evening, you will be in Stamboul*²¹.” (Leytenat Dyubosk nutqi)

2. “*I shall have to go on to-night,*” he said to the concierge. “*At what time does the Simplon Orient leave?*”²² (Detektiv Puaro nutqi)

Keltirilgan misollarda fransuz leytenanti Dyubosk va detektiv Puaro nutqida ingliz tilidagi fonetik birliklarning fransuzcha ohangda ifodalanishi kuzatiladi. Bu holat bo‘g‘inlar orasiga chiziqcha qo‘shish (“*to-day*”, “*to-night*”) orqali yaratilgan bo‘lib, “*language interference*” hodisasi, ya‘ni ona tilining boshqa tildagi nutqqa ta‘siri bilan izohlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek badiiy, xususan detektiv matnlarda mazkur fonetik texnika nafaqat talaffuzni ifodalash, balki fikrni ta‘kidlash maqsadida ham qo‘llanadi:

1. – *Uzukni qo‘yavering, – dedi u. – Kerak emas. Ammo kurortga bu yil bormasak, ko‘rasiz mendan... Ketib qola-man!..*²³

2. – *Xotiningiz... noto‘g‘ri gapirgan, – kapitan “alda-gan” demoqchi edi, aytolmadim*²⁴.

Ajratilgan iboralarning chiziqcha orqali bo‘g‘inlarga ajratib berilishi ma‘noni ta‘kidlashga xizmat qiladi. Ushbu uslubiy vosita kapitan Aliyev va Sanobar nutqining o‘ziga xosligini ko‘rsatib, emotsional urg‘uni kuchaytiradi hamda o‘quvchi e‘tiborini muhim birliklarga qaratib, ularning mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, muallif qahramonlar nutqidagi leksik va fonetik birliklar orqali ularning ta‘lim darajasi haqida ham ma‘lumot beradi. Bu holat *Murder on the Orient Express* asaridagi Habberd xonim nutqida ham kuzatiladi:

²⁰ Agatha Ch. Ko‘rsatilgan manba. – B. 10.

²¹ Agatha Ch. Ko‘rsatilgan manba. – B. 7.

²² Agatha Ch. Ko‘rsatilgan manba. – B. 12.

²³ Umarbekov O‘. Ko‘rsatilgan manba. – B. 35. www.ziyouz.com kutubxonasi

²⁴ Umarbekov O‘. Ko‘rsatilgan manba. – B. 44. www.ziyouz.com kutubxonasi

*“I put my grips against the communicating door last night. I thought I heard him trying the handle. **Duo** you know, I shouldn’t be a bit surprised if that man turned out to be a murderer—one of these train robbers you read about. I daresay I’m foolish, but there it is”.*

Keltirilgan ibora ingliz tili orfografik me’yorlariga ko‘ra “do” shaklida bo‘lishi lozim edi. Biroq bunday og‘ish muallif xatosi emas, balki ongli stilistik usul sifatida qo‘llangan. Bu orqali muallif Mrs. Hubbardning ta’lim darajasi va ijtimoiy maqomini bilvosita ifodalashga erishgan. Mazkur misollarga o‘xshash vaziyat o‘zbek tilida yozilgan detektiv matnlarda ham aks etadi:

– ***Milisani** o‘zi bo‘lib gapirasan-a, chilton?!*

E’tiroz bildirdi ikkinchi yoshrog‘i:

– *Kecha o‘lgan bo‘lsa, o‘ldirgan odam shu paytgacha manaman deb turadimi? Allaqachon juftakni rostlagan, la’nati!*²⁵

Nutqda aks etgan grammatik xatolar ba’zan qahramon foydalanayotgan til uning o‘z ona tilisi emasligidan ham darak beradi. Shu sababli ham qahramonlar nutqida ana shunday kamchiliklar yuzaga chiqadi. Bunday holatni detektiv Puaroning nutqida kuzatish mumkin:

1. *“What’s wrong with my proposition?”*

*Poirot rose. “If you will forgive me for being personal – I do not like your face, M. Ratchett,” he said*²⁶.

2. *“Poirot raised his voice and called. One of the restaurant attendants came from the far end of the car.*

*“Go and ask the English lady in No. if she will be good enough to come here”*²⁷.

Ingliz tilida shart ergash gapli qo‘shma gaplar maxsus grammatik qoidalarni, xususan, *if, unless, provided that* kabi bog‘lovchilarning qo‘llanishini bilishni talab qiladi. Jumladan, *if* bilan kelgan ergash gapda *shall/will* kabi yordamchi fe’llarning ishlatilishi me’yoriy emas. Puaro nutqida bu kabi og‘ishlarning kuzatilishi uning savodsizligini emas, balki ingliz tilining ayrim grammatik xususiyatlaridan xabarsizligini ko‘rsatadi.

Bobning ikkinchi fasli birinchi qismi *“O‘zbek va ingliz detektiv asar qahramonlari xususiy nutqining sotsiopragmatik xoslanishi va ularga ta’sir qiluvchi omillar”*, ikkinchi qismi esa *“Kommunikantlar ijtimoiy mavqeyi va rolining o‘zbek va ingliz detektiv asarlari obrazlari nutqida voqelanishi”* deb nomlanib, ularda keltirilgan ilmiy-nazariy qarashlarni tegishli o‘zbek va ingliz detektiv asarlari qahramonlari nutqi misolida dalillashga harakat qilindi.

Badiiy matnda kommunikantlarning ijtimoiy mavqeyi va roli maxsus til birliklari orqali ifodalanadi. Turli ijtimoiy qatlam vakillarining muloqoti leksik tanlov, sintaktik qurilish, nutq uslubi va murojaat shakllari orqali yoritiladi. Bu holat ijtimoiy tabaqalanish kuchli bo‘lgan ingliz jamiyatini aks ettiruvchi detektiv asarlarda ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunday asarlarda detektiv nutqi aniqlik, mantiqiylik va rasmiylik bilan birga, suhbatdoshning maqomiga mos

²⁵ Umarbekov O‘. Ko‘rsatilgan manba. – B. 18. www.ziyouz.com kutubxonasi

²⁶ Agatha Ch. Ko‘rsatilgan manba. – B. 20.

²⁷ Agatha Ch. Ko‘rsatilgan manba. – B. 122.

ravishda moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ushbu jihatni Murder on the Orient Express asarida Puaroning malika Dragomirov bilan suhbatidagi nutqiy birliklar tahlili orqali kuzatish mumkin.

1. ***“There is nothing more, Madame. I am much obliged to you for answering my questions so promptly”.***

2. ***“You will excuse me, Monsieur,” she said, “but may I ask your name? Your face is somehow familiar to me”.***

“My name, Madame, is Hercule Poirot—at your service”.

Puaro mazkur kommunikativ vaziyatda suhbatdoshining ijtimoiy maqomini inobatga olib, rasmiy, muloyim va diplomatik nutq uslubini qo‘llaydi. Uning “Madame”, “I am much obliged to you”, “at your service”, “you will excuse me” kabi iboralardan foydalanishi yuqori tabaqa vakiliga mos hurmat va ehtiyotkorlikni ifodalaydi hamda kommunikativ mahoratini namoyon etadi. Bunga qarama-qarshi ravishda, o‘rta va quyi tabaqa vakillarining nutqi subordinant, ya’ni bo‘ysunuvchi ohangda shakllanadi. Bu jihat Puaroning Meri Hermion va konduktor bilan muloqotida ham yaqqol kuzatiladi.

“Does it distress you very much, Mademoiselle, that a crime has been committed on this train?”

The question was clearly unexpected. Her grey eyes widened a little.

“I don’t quite understand you?”

“It was a perfectly simple question that I asked you, Mademoiselle. I will repeat it. Are you very much distressed that a crime should have been committed on this train?”²⁸

Shunday qilib, detektiv asarlarda qahramonlar nutqi suhbatdoshning ijtimoiy maqomiga qarab moslashadi, bu esa turli darajadagi shaxslar bilan ishonchli muloqot o‘rnatishga xizmat qiladi. O‘zbek detektiv qahramonlari esa rasmiy organ vakillari sifatida hatto oddiy fuqarolar bilan muloqotda ham rasmiy nutq uslubiga xos ifodalardan foydalanadilar:

– *Keling, o‘rtoq Shayxuddinova, o‘tiring. Kapitan ro‘parasidagi stulni ko‘rsatdi.*

– *Xo‘sh, o‘rtoq Shayxuddinova, fojia qanday yuz berdi?*

Munira sapchib o‘rnidan turdi²⁹.

Kapitan Aliyevning Muniraga familiyasi bilan, “o‘rtoq” iborasi orqali murojaat qilishi sovet davri rasmiy nutqiga xos xususiyatni aks ettiradi. Ushbu birlik rasmiy muhitda hurmat va ijtimoiy tartibni ifodalovchi murojaat shakli sifatida qo‘llanadi va davlat organlari vakillari o‘rtasidagi muloqotda ham faol ishlatiladi. O‘zbek tilida hurmatni ifodalovchi ayrim vositalar, xususan “siz” olmoshi va *-lar* qo‘shimchasi ingliz tilida to‘liq ekvivalentga ega emas. Mazkur vositalar yuqori maqomli yoki hurmatga sazovor shaxslarga murojaatda qo‘llanadi.

Kapitan javob berishga ulgurmay, sekretar qiz kirdi.

– ***Kapitan G‘ulomov keldilar.***

– *Chaqiring³⁰.*

²⁸ Agatha Ch. Ko‘rsatilgan manba. – B. 79.

²⁹ Umarbekov O‘. Ko‘rsatilgan manba. – B. 14. www.ziyouz.com kutubxonasi

³⁰ Umarbekov O‘. Ko‘rsatilgan manba. – B. 16. www.ziyouz.com kutubxonasi

Ingliz tilida esa bu tarzda hurmat ifodasi ko‘pincha boshqa vositalar orqali, masalan, “ser” yoki “madam” so‘zlari yordamida yoki maxsus so‘zlashuv uslubi va ijtimoiy kontekst orqali ifodalanadi:

1. *“I should be more inclined to suspect you, **Mr. MacQueen**, if you displayed an inordinate sorrow at your employer’s decease”³¹.*

2. *“Your baggage, **Madame**, shall be moved out of this coach altogether. You shall have a compartment in the next coach, which was put on at Belgrade”³².*

Bobning “O‘zbek va ingliz detektiv asarlari qahramonlari nutqining gender o‘ziga xosligi” deb nomlanuvchi so‘nggi fasli o‘zining xususiy nutqda gender omili qanchalik muhim rol o‘ynashini tahlil ostiga olganligi bilan ahamiyatli.

Ingliz va o‘zbek detektiv asarlarida qahramonlar nutqi gender omiliga ko‘ra farqlanadi va bu jihat erkak hamda ayol obrazlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda *erkak* qahramonlar nutqi tahliliy, mantiqiy va aniq bo‘lsa, *ayol* qahramonlar nutqi ko‘proq emotsional xususiyatga ega bo‘ladi. Detektiv asarlarda ayol qahramonlar nutqi ayniqsa hissiylik bilan ajralib turib, turli emotsional ifodalar bilan boyitiladi:

“Of course, I’m sure! The idea! I know what I’m talking about. I’ll tell you everything there is to tell. I’d gotten into bed and gone to sleep, and suddenly I woke up – everything was dark – and I knew there was a man in my compartment. I was just so scared I couldn’t scream, if you know what I mean. I just lay there and thought, ‘Mercy, I’m going to be killed!’ I just can’t describe to you how I felt”.

Yuqoridagi “Murder on the orient express” asaridan olingan parchada amerikalik ayol nutqining emotsional ifodalanishida ham leksik, ham sintaktik birliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Parchadagi bir nechta o‘rinda (uch o‘rinda: “Of course I’m sure!”, “The idea!”, “Mercy, I’m going to be killed!”) undov gaplar hamda “scared” va “scream” kabi leksik birliklar ifodalanishi mazkur qahramon nutqi emotsional bo‘lishini ta’minlaydi. Bu kabi hissiy til asarning ayol qahramonlari, xususan, Habberd xonim nutqida yana ko‘plab o‘rinlarda uchraydi:

“I just can’t tell you how terrible it was! I don’t suppose anybody on this train can understand my feelings. I’ve always been very, very sensitive ever since I was a child. The mere sight of blood—ugh! Why, even now I get faint when I think about it!”

Birinchi misolda keltirilgan “anybody on this train can understand my feelings”, “I’ve always been very, very sensitive ever since I was a child”, “...even now I get faint when I think about it!” kabi jumlar so‘zlovchining hissiy beqaror holatini ifodalaydi. Shuningdek, ayollarga xos qo‘rqoqlik unsurlari ushbu qahramonning detektiv so‘rog‘i jarayonidagi javoblarida ham namoyon bo‘ladi:

“How do I know where he went? I had my eyes tight shut”³³. – (“Men u qayerga ketganini qayerdan bilaman? Ko‘zlarim mahkam bog‘langan edi”).

³¹ Agatha Ch. Ko‘rsatilgan manba. – B. 46.

³² Agatha Ch. Ko‘rsatilgan manba. – B. 91.

³³ Agatha Ch. Ko‘rsatilgan manba. – B. 54.

O‘zbek detektiv janriga xos asarlarda ham muallif tomonidan ayollar erkaklarga qaraganda ko‘proq o‘z his-tuyg‘ulariga beriluvchan personaj sifatida gavdalantiriladi. Bu mazkur jins vakillari nutqlarida ham o‘z ifodasini topadi:

1. – *O‘ldirib ketishganga o‘xshaydi!* – dedi temiryo ‘lchi amaki.

– *Voy o‘lmasam!* – Munira qichqirib yubordi.

2. – *Voy sho‘rim!.. Voy mening sho‘r peshanam! Nega o‘ldirishdi? Kimning qasdi bor ekan unda?*

3. **“Dadasi! Sho‘rimiz quribdi! Sho‘rimiz quribdi! Munisxondan ajralib qopmiz!”**

“Yoz yomg‘iri” asarida Munisxonning o‘limi haqidagi xabar yetkazilganda, ayol qahramonlar (Munira va Munisxonning onasi) vaziyatni yuqori emotsional tusda, “*voy o‘lmasam*”, “*voy sho‘rim*”, “*sho‘rimiz qurubdi*” kabi iboralar orqali ifodalaydi. Xususan, onaning nutqi uning chuqur iztirobini yaqqol aks ettiradi. Taqqoslash uchun erkak qahramon — Munisxon otasining mazkur vaziyatga bildirgan munosabati uning nutqi asosida tahlil qilinadi:

Said akaning qo‘lidan hassasi tushib ketdi.

– *Nima deyapsan o‘zi? Bo‘kirmasdan gapir!.. Bor, uyga kir! – jerkib berdi Said aka. – Rahimjon?! Nima bo‘ldi?*

Qizining o‘limi haqidagi xabarni eshitgan Said aka dastlab qisqa shok holatini boshdan kechirsa-da (“*Said akaning qo‘lidan hassasi tushib ketdi*”), tezda o‘zini qo‘lga olib, xotinini tinchlantirish va vaziyatni anglashga intiladi. Bu holat detektiv asarlarda erkak qahramonlarning sovuqqon va vazmin obraz sifatida tasvirlanishini ko‘rsatadi. Ayollar nutqiga xos salbiy jihatlardan biri sifatida ko‘p qasam ichish ham kuzatiladi. Bu xususiyat Munisxon va guvoh farrosh ayol nutqida ham yaqqol namoyon bo‘ladi:

1. – *Rostmi?*

– ***Tepamda Xudo turibdi!..***

...Xudo ursin, rost! Qariganimda aldab o‘libmanmi?

2. “*Voy, ukam. O‘sha kundan beri durbin bo‘lib ketdim. Bu emas. Tepamda Xudo turibdi, aylanay. Yolg‘on gapirib bir bechorani tashvishga qo‘yaymi?*”

“I swear to you, M. Poirot—and my husband knows—and will swear also—that much as I may have been tempted to do so, I never lifted a hand against that man”

Xulosa qilib aytganda, mazkur bobda xususiy diskursning sotsiopragsmatik tabiati detektiv asar qahramonlari nutqidagi ijtimoiy xoslangan vositalar orqali tahlil qilindi. Natijada ingliz detektivlarida mantiqiy va rasmiy nutq ustuvorligi, o‘zbek detektivlarida esa emotsional va madaniy normalarga asoslangan nutqiy xususiyatlar yetakchi ekanligi aniqlandi.

XULOSA

1. Antropotsentrik yondashuv tilni muloqot vositasidan tashqari, millatning ma‘naviy-madaniy kodi sifatida talqin qiladi. U tilni inson ongi, tafakkuri va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘lab, psixolingvistika, etnolingvistika, kognitiv

tilshunoslik, pragmatika va sotsiopragmatika kabi yo‘nalishlarni integratsiyalash orqali inson tajribasini aks ettiruvchi tizim sifatida o‘rganadi.

2. Ushbu yondashuv detektiv matnlarda qahramon nutqini tahlil qilishda muhim bo‘lib, ularning individualligi, nutqiy portreti va psixologik xususiyatlarini ochib berishda diskursiv tahlilning yetakchi rolini belgilaydi.

3. Diskurs individualligi so‘z tanlovi, sintaktik qurilish, fonetik xususiyatlar (urg‘u, intonatsiya, pauza) hamda leksik-sotsiolingvistik birliklar (jargon, terminlar) orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu vositalar so‘zlovchining ijtimoiy kelib chiqishi va kommunikativ tajribasini aks ettirib, nutqning ekspressiv va kommunikativ salohiyatini kuchaytiradi.

4. Detektiv matn sinergiya nuqtayi nazaridan tizimli jarayon sifatida namoyon bo‘lib, uning rivojlanishi haqiqatni ochishga qaratilgan bo‘ladi. Ushbu tizim syujet bilan bog‘liq matn tarkibiy qismlarining o‘zaro ziddiyatli ta’siri natijasida shakllanadi.

5. Detektiv matnlar ekspressivlikni oshirishda metafora, metonimiya, o‘xshatish, takror va giperbola kabi stilistik vositalardan foydalanadi. Ular dramatik effektni kuchaytirish bilan birga qahramonlar nutqiga individuallik bag‘ishlab, ularning psixologik holatini ochib beradi. Ingliz detektivlarida bu vositalar mantiqiy izchillik bilan uyg‘unlashsa, o‘zbek detektivlarida asosan hissiy ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiladi.

6. Detektiv asarlar matni qahramonlar nutqi vositasida axborotni o‘quvchiga har doim to‘liq va to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki nutqiy ishoralar orqali yashirin ko‘rinishda yetkazadi. Bu borada asar qahramonlari nutq uslubi va so‘z (so‘z birikmalar) tanlovi matnning pragmatik ma’nosini ochib beruvchi muhim omillardan biri sanaladi.

7. Ingliz va o‘zbek detektiv asarlari qahramonlari nutqini kognitiv jihatdan tahlil qilish har ikki milliy-madaniy muhitga xos mentalitet, stereotip va urf-odatlarining personajlar nutqida lisoniy voqelanish xususiyatlarini, shuningdek, ularning olamning lisoniy manzarasini shakllantirishdagi rolini aniqlash imkonini beradi. Zero, asar qahramonlari nutqi, xulq-atvori va qarashlari aynan shu ijtimoiy-kognitiv omillar ta’sirida rivojlanadi.

8. Detektiv qahramonlar nutqining sotsiopragmatik tabiati tilning ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligini yoritadi. O‘zbek va ingliz matnlarida nutq qahramonlarning nafaqat individual xususiyatlarini, balki ularning ijtimoiy-madaniy va tarixiy sharoitlarga moslashuvini ham aks ettiradi. Shu orqali til vositalari muloqotning maqsadga yo‘naltirilganligini ta’minlab, so‘zlovchining dunyoqarashi va ijtimoiy rolini ifodalaydi.

9. O‘zbek detektiv asarlarida qahramonlar nutqining ruscha iboralar bilan boyitilishi sovet davri til siyosatining ijtimoiy-tarixiy ta’siri bilan izohlanadi. Ingliz detektiv matnlarida esa bunday o‘zlashmalar kam uchrashi ingliz tilining global til sifatidagi mavqei hamda Angliyaning tarixan mustamlakachi davlat bo‘lganligi bilan bog‘liq.

10. Jinoyatchi, guvoh va detektiv nutqidagi leksik-semantik farqlar ularning nutqiy individualligini shakllantirib, asar voqealarining ishonarliligini oshiradi.

Detektiv nutqining rasmiy va mantiqiyliги hamda jinoyatchilarga xos manipulyativ ifodalar voqelikning tabiiyligini ta'minlaydi.

11. Detektiv asarlarda qahramonlar nutqi ijtimoiy kontekstga bog'liq bo'lib, ular o'z sotsial maqomi va suhbatdoshining mavqeiga mos muloqot uslubini tanlaydi. Bu holat ijtimoiy tabaqalanish kuchli bo'lgan ingliz jamiyatini aks ettiruvchi detektiv asarlarda, xususan, Puaro nutqida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

12. Nutqning gender xosligi detektiv asarlarda qahramonlarning jinsiy identifikatsiyasi va ijtimoiy rollarini ochishda muhimdir. Ayollar nutqiga xos emotsionallik, erkaklar nutqiga xos sovuqqonlik va mantiqiylik badiiy matnda jamiyatning tilga oid ijtimoiy normalarini aks ettiradi.

**SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/2025.27.12.FIL.08.08
AWARDNING SCIENTIFIC DEGREES AT BUKHARA STATE
UNIVERSITY**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

NIYAZOVA GULNORAKHON GULYAMOVNA

**COGNITIVE AND SOCIOPRAGMATIC ASPECTS OF PRIVATE
DISCOURSE (BASED ON ENGLISH AND UZBEK DETECTIVE
FICTION)**

10.00.06 – Comparative Literature, Contrastive Linguistics and Translation Studies

**DISSERTATION ABSTRACT
for a Doctor of Science (DSc) in PHILOLOGY**

Bukhara - 2026

The theme of the dissertation for a Doctor of Science (DSc) in Philology was registered under B2023.2.DSc/Fil583 by the Supreme Attestation Commission.

The dissertation has been accomplished at Bukhara State University.

The dissertation abstract in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) has been placed on the website (www.buxdu.uz) of the Scientific Council and "ZiyoNet" Information and educational portal (www.ziynet.uz)

Scientific advisor: **Raupova Laylo Rakhimovna**
Doctor of Science in Philology, Professor

Official opponents: **Mirzayev Ibodulla Kamolovich**
Doctor of Science in Philology, Professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich
Doctor of Science in Philology, Professor

Narmuratov Zayniddin Radjabovich
Doctor of Science in Philology, Associate Professor

Leading organization: **Termez State University**

The dissertation defense will be held on " 23 " June 2026 at 9⁰⁰ at the meeting of the Scientific Council DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 at Bukhara State University (Address: 200118, Bukhara, M.Iqbol street, 11. Phone: (0365) 221-29-14; Fax: (0365) 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

The dissertation is available at the Information-resource center of Bukhara State University, (registration number _____). Address: 200118, Bukhara, M. Iqbol street, 11. Phone: (0365) 221-25-87

The dissertation abstract is distributed on " 9 " June 2026.

(Mailing report № 26-16 on " 9 " June 2026).



D.I.Khodjayeva
Chairperson of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Associate Professor

O.O.Bobokalonov
Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Associate Professor

O.M.Fayzulloev
Chairperson of the Scientific Seminar under Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Professor

INTRODUCTION (Doctor of Science (DSc) Dissertation Annotation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. The need to study the linguistic means that ensure the individuality of private discourse in world linguistics is explained by several reasons. First and foremost, linguistic individuality plays a significant role in shaping a person's personality and uniqueness. People express their thoughts, emotions, beliefs, lifestyle, and worldview directly through their communication methods. Therefore, studying the linguistic means that form individuality in private discourse provides linguists with opportunities to gain a deeper understanding of the structure and functional aspects of human speech. This, in turn, contributes to the further development of theoretical and applied linguistics.

Numerous scientific studies dedicated to investigating the linguistic means that ensure the individuality of private discourse are being conducted in world linguistics. In the fields of stylistics and linguostylistics, the role of linguistic tools such as metaphor, metonymy, simile, hyperbole, and irony in shaping the individuality of a speaker's speech is explored. In sociolinguistics, the influence of social-cultural and psychological factors on the individual characteristics of a speaker's speech is studied.

The analysis of individual language features in our country is developing within research focused on the study of private discourse. This contributes to a deeper understanding of communication and enriches scholarly knowledge across various fields of linguistics.

Cognitive linguistics stands out for its focus on studying the individuality aspects of the perception, comprehension, and interpretation of linguistic means. Numerous studies within various linguistic approaches and methodologies help deepen the understanding of the specific characteristics of linguistic and sociolinguistic means that shape the individuality of private discourse and their role in the communicative process. From this perspective, a comparative analysis of the linguistic and sociopragmatic means that ensure the individuality of private discourse in Uzbek and English languages holds practical significance. These aspects determine the relevance of this dissertation topic.

The dissertation contributes to a certain extent to the implementation of tasks outlined in the normative-legal acts of the Republic of Uzbekistan, including:

Presidential Decree No. PF-5847 dated October 8, 2019, "On Approving the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030"; Presidential Decree No. PF-6108 dated November 6, 2021, "On Measures to Develop Education, Upbringing, and Science in the New Development Period of Uzbekistan"; Presidential Decree No. PF-158 dated September 11, 2023, "On the Uzbekistan – 2030 Strategy"; Resolution No. PQ-3775 dated June 5, 2018, "On Additional Measures to Improve the Quality of Education in Higher Education Institutions and Ensure Their Active Participation in Comprehensive Reforms in the Country"; Resolution No. PQ-5117 dated May 19, 2021, "On Measures to Elevate the Promotion of Foreign Language Learning

in the Republic of Uzbekistan to a Qualitatively New Level”; as well as other normative-legal acts related to the field.

Compatibility of the Research with the Priority Areas of Science and Technology Development in the Republic. The dissertation aligns with the priority area of the development of science and technology in the Republic, specifically under I. "Formation and implementation of an innovative ideas system for the social, legal, economic, cultural, and spiritual-educational development of an information society and democratic state."

Review of Foreign Scientific Research on the Dissertation Topic¹. Currently, the identification of linguistic, pragmatic, cognitive, and sociopragmatic factors shaping discourse is emerging as a critical area of research. Analyzing the interconnection between language, human thought, worldview, and emotional experiences from a comparative linguistics perspective has become a prominent focus in numerous scientific studies.

With the rise of the anthropocentric approach in linguistics, many top universities in the UK, Sweden, the US, Canada, Finland, Australia, Italy, and Russia are now doing research on discourse theory and the cognitive and sociopragmatic analysis of speech.

In contemporary linguistics, the informational-discursive aspects of speech are regarded as intricately linked to an individual's capacity to articulate internal experiences, emotions, and social relationships. Research from prestigious institutions, including the University of California, Lancaster University, the University of Edinburgh, Moscow State University, and Saint Petersburg State University, corroborates this assertion. Studies examining the cognitive, pragmatic, and sociopragmatic dimensions of speech provide a basis for significant conclusions in modern linguistics.

Degree of Research on the Problem. In anthropocentric linguistics, the discourse issue—particularly the role of private discourse in describing human speech communication, cognitive approaches to language, and the pragmatic and sociopragmatic analysis and interpretation of speech activity—has been thoroughly examined².

¹ Sharh universitetlarning veb-saytlaridagi ma'lumotlar hamda SCOPUS ma'lumotlar bazasidagi indekslangan ilmiy nashrlar asosida taqdim etildi: <https://www.lancaster.ac.uk/>, <https://www.oru.se/>, <https://www.nottingham.ac.uk/>, <https://www.helsinki.fi/>, <https://www.universityofcalifornia.edu/>, <https://www.cityu.edu.hk/>, <https://www.gu.se/>, <https://www.sydney.edu.au/>, <https://www.mpi.nl/>, <https://www.unitn.it/>, <https://www.utoronto.ca/>, <https://msu.ru/>, <https://spbu.ru/>, <https://nuu.uz/>, <https://uzswlu.uz/>, <https://tsuull.uz/>, <https://samdchti.uz/>, <https://buxdu.uz/>, <https://www.scopus.com/>.

